

**TALABALARNI XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA MILLIY RUHDA TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В НАЦИОНАЛЬНОМ ДУХЕ НА ОСНОВЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF EDUCATION OF STUDENTS IN THE NATIONAL SPIRIT BASED ON FOLK PEDAGOGY**

**Otaxonova Zamira Muratovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali katta o'qituvchisi

**Otajonov Jamshidbek Mashrabjonovich<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali PhD, v.b. dotsent

**Annotatsiya**

*Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. O'tmishda Sharq mutafakkirlari o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, ma'naviyatimiz sarchashmasi bo'lgan ta'lim-tarbiya, shaxs kamoloti haqida boy tarixiy tajribani meros qilib qoldirgan. Maqolada talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, xalq pedagogikasida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish haqidagi o'ziga xos pedagogik g'oyalari haqida so'z yuritiladi.*

**Аннотация**

*Будущее каждой социальной системы, человеческая перспектива, жизнь и уровень жизни людей напрямую связаны с развитием науки и культуры. В прошлом восточные мыслители на основе своего жизненного опыта оставили богатый исторический опыт образования и развития личности, который является основой нашей духовности. В статье говорится об особенностях воспитания учащихся в национальном духе на основе народной педагогики, об уникальных педагогических идеях индивидуального воспитания, обучения и развития в народной педагогике.*

**Abstract**

*The future of every social system, human perspective, people's life and standard of living are directly related to the development of science and culture. In the past, Eastern thinkers, based on their life experiences, left a rich historical experience of education and personal development, which is the foundation of our spirituality. The article talks about the specific features of educating students in the national spirit on the basis of folk pedagogy, the unique pedagogical ideas of individual upbringing, education and development in folk pedagogy.*

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, qadriyat, tarbiya, shaxs, ta'lim, ma'naviyat.

**Ключевые слова:** народная педагогика, ценности, воспитание, личность, обучение, духовность.

**Key words:** folk pedagogy, value, education, personality, education, spirituality.

**KIRISH**

Ma'lumki, inson qayta tiklanmaydigan eng qimmat resurs, bebaho qadriyat sanaladi. Insonning mamlakat va insoniyat uchun qilishi mumkin bo'lgan eng katta xizmati esa Bernard Shou aytganiday, bolalarini tarbiyalashidir. Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash xususida fikr yuritilishi ta'lim-tarbiya jarayonini aksiologik yondashuv asosida amalga oshirish zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Bu esa talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalash aslida ularning bo'lajak pedagog sifatida fasilitatorlik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Fasilitatorlik – bu guruhdagi faoliyatni tashkil etishda pedagogning rolli pozitsiyasini yuzaga chiqaradi. Milliy ruhda tarbiyalanayotgan talabada fasilitatorlik qobiliyatlarining vujudga kelishi tabiiydir. Chunki aynan xalq pedagogikasi fasilitatorlarda mavjud bo'lgan xayrixohlik, tushunish, hamdardlik kabi fazilatlarini o'zida namoyon etadi. Milliy ruhda tarbiyalanayotga talaba kelgusida shaxsiyatga yo'naltirilgan modelni qo'llaydigan pedagog-fasilitatorga aylanishi sir emas.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalash aksiologik yondashuvni talab etadi. Chunki, aksiologiya (yunoncha «axia» - qimmat, qadr va «logos» - ta'limot) qadriyatlar haqidagi soha sanalib, ajdodlarimizning shaxs o'zligini anglash jarayonini hayotiy zaruriyatga aylantirganini ko'ramiz. Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalash jarayonida

Sharqning buyuk allomalari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda boshqa pedagogik fikr namoyandalarining asarlariga murojaat etish yaxshi natija beradi. Xalq pedagogikasida maktab va madrasalarning mudarris, ustoz-murabbiy sifatida, insonni aqliy kamolotga yetkazishda o'qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berilgan, muallim va ustoz-murabbiyning pedagogik mahorati hamda eng qulay ta'lim usullarining amaliyotda qo'llash yo'llari bayon etilgan. Darhaqiqat, jahon ilm-ma'rifatining buyuk namoyandasi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) matematika fani sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi va pedagog uslubiyatchi olim sifatida «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala» asarida matematika fanida abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi 3.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Buyuk mutafakkir Muhammad Muso al-Xorazmiy bilimlarni egallashda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ta'limda mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, savol-javob, bahs-munozara kabi ta'lim usullaridan keng foydalangan holda talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish malaka va ko'nikmalarini tarkib toptirish to'g'risida to'xtalib: «... sezgi orqali bilish, bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomonini bayon etadi. ... insonning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin»4, deydi. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan «Sharq Arastusi» yoki «Al-muallim as-soniy» («Ikkinchi muallim») nomlariga sazovor bo'lgan Abu Nasr al-Forobiyga ko'ra (870-950) ta'lim texnologiyasining bosh g'oyasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi hamda o'qitishning vosita va usullariga borib taqaladi. Uning fikricha, «Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish, degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir»[1]. Demak, Forobiyning ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinishi asoslab beriladi. Bu muhim vazifa tajribali ustoz-tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli usullari yordamida amalga oshiriladi. Forobiy o'qitishning eng oson va qulay vosita hamda usullarini aniq ko'rsatib bergan: «Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar hamda ularni bajarishga odatlanish masalasi»ga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanotbaxsh so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odatdagi g'ayrat, intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni egallashga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlar va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir»[2]. Abu Rayhon Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048)ning ta'lim va tarbiya texnologiyasida o'qitishda talabani zeriktirmaslik va xotirasini toliqtirmaslik uchun o'rganiladigan fanlarni tez-tez almashtirib turish zarurligi va o'qitishda turli ta'lim uslublaridan foydalanish haqidagi ilg'or fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Beruniy o'qitish vositasi va usullari haqida fikr yuritar ekan, «Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi», deydi. Beruniyning «Mineralogiya» asarida bayon etilgan hunarmandchilik texnologiyasi, ayniqsa, ayollar uchun zebziynat buyumlarni yasashda xotin-qizlarning faol ishtiroki, ularning zargarlik san'atidagi qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish usullari haqidagi teran fikrlari juda ham qimmatlidir: «Marvaridning bahosini kim yaxshi bilsa, u kishi uni teshish va silliqlash ishlari bilan o'zi shug'ullanmay, bahosini bilmaydigan shogirdlariga

topshiradi. Bunda shogirdlarining qo'llari qaltiramaydi, qo'rqmay ishlaydilar. Agar bu ish xavfsirash, qo'rqish bilan bajariladigan bo'lsa, marvaridlar sinib, parchalanib isrof bo'lishi mumkin. Ba'zan usta shogirdlariga shapaloq tushurib turadi, sabab, ularni xavfsirash yo'llaridan xalos etib turishdir. Marvarid teshilib, sayqal berilib bo'linganidan so'ng, har qanday xavf yo'qoladi»<sup>3</sup>. Sharqda «Shayx-ur rais» («Olimlar raisi») unvoni bilan mashhur bo'lgan Al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinoning (980-1037) «Tadbir ul-manozil» asarida bayon etilgan o'qitish usullari hozirgi davr ta'lim tamoyillariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir: «Bola baquvvat bo'lib, so'zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlangandan so'ng u savod o'rganishga qobil bo'ladi, shundan so'ng savodga o'rgata borish mumkin. Avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan irodali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo'ladi. U sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerak»<sup>[4]</sup>. Ibn Sino talabaga bilim berishda o'qituvchining pedagogik mahorati va mas'uliyatli burchi masalasiga alohida to'xtalib, o'qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi, qiziqishi, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o'qituvchiga shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq-jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli o'qitish usullari va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqitira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur»<sup>[4]</sup>.

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o'qitishdan ko'ra jamoa, sinf tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta'kidlaydi: «O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar.

### XULOSA

Xalq pedagogikasi asosida talabalarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy pedagogik g'oyalar ustuvorligiga erishish, o'quv-tarbiya jarayoni, hadislar, oila, mahalla, an'anaviy udumlar, to'y, ma'raka va boshqa kam guruhli va ko'p sonli odamlar ishtirok etadigan yig'inlar, sayillar, mehmondorchilik, mehmon kutish, ommaviy axborot vositalari, so'z va amaliy san'at namunalari va boshqalar muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Xalq pedagogikasi yagona maqsadga – umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Talabalar xalq tarixi va millatning urf-odatlarini, turmush tarzi namoyon bo'lgan milliy pedagogika asoslarini chuqur o'rganishlari muhim masaladir. Xalqning umumiy pedagogik madaniyatida shaxs tarbiyalanib, o'qib rivojlanishida o'ziga xos innovatsion pedagogik g'oyalarga aksiologik yondashishni talab etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan". - T.: "Justice", 2017.
2. Atayeva N., Rasulova F., Hasanov S. General pedagogy (History of Pedagogy). Study guide. Book 1. - T.: "Science and technology", 2011.
3. Bakhodirov R. Eastern thinker. Abu Abdullah al-Khwarizmi and the classification of sciences. - T.: "Uzbekistan", 1995.
4. From the book "Minerology" by Beruni ("Collection of information on the study of precious stones"). Selected Works, Volume IV. - T., 1974. - p. 25.
5. Pedagogy. Encyclopedia, Volume 1. - T.: State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2015.